

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XURRAMOV ESHMAMAT XUDOYBERDIYEVICH

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV QIMMATLI
QOG‘OZLARINING BOZOR QIYMATINI BAHOLASH AMALIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии по
экономическим наукам (PhD)**

**Content of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Xurramov Eshmamat Xudoyberdiyevich

Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor
qiymatini baholash amaliyotini takomillashtirish..... 3

Хуррамов Эшмамат Худойбердиевич

Совершенствование практики оценки рыночной стоимости
корпоративных ценных бумаг акционерных обществ..... 27

Xurramov Eshmamat Xudoyberdiyevich

Improvement of the practice of assessing the market value of corporate
securities of joint-stock companies..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 56

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XURRAMOV ESHMAMAT XUDOYBERDIYEVICH

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV QIMMATLI
QOG‘OZLARINING BOZOR QIYMATINI BAHOLASH AMALIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.1.PhD/Iqt3814 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bfa.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xudoyqulov Xurshid Xurramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismailov Alisher Agzamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xo'jamurodov Asqar Jalolovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "6" "11" kuni soat 16⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-y. Tel.: (0 371) 239-28-71, faks: (0371) 239-43-51, e-mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1799 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (0371) 239-28-71, faks: (0 371) 239-43-51, e-mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 23 » 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil « 23 » 10 daqi No 91 raqamli reestr bayonnomasi).



S.U.Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

U.V.Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

S.K.Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurligi. Hozirgi kunda dunyo iqtisodiyotida integratsiya jarayonlari jadal sur'atlarda chuqurlashib borayotgan sharoitda, yirik institutsional moliya institutlari o'z kapital resurslarini o'sish potentsiali taraqqiy etgan davlatlarnikidan yuqori bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga yo'naltirmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarga sarmoya oqimlari tez sur'atda oshib borayotganiga qaramay, kapital bozorlarining kapitallashuv darajasi, axborot shaffofligi, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining likvidligi, qimmatli qog'ozlar narxlarining volatilligi hamda oldi-sotdi bilan bog'liq tranzaksion xarajatlarning yuqoriligi kabi omillar aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymati bo'yicha baholashda ilg'or usullarni qo'llash ehtiyojini kuchaytirmoqda. Masalan, 2024-yilda kapital bozori kapitallashuvining yalpi ichki mahsulotga nisbati Tayvanda 289,2 foiz, Tailandda 104,2, Janubiy Koreyada 90,4, Indoneziyada 55,7, Turkiyada 30,9 va Polshada 42,3 foizni tashkil etdi¹. Bu esa, o'z navbatida, korporativ qimmatli qog'ozlarni riskni yetarlicha inobatga olgan holda zamonaviy baholash usullari orqali aniqlash zarurligini yaqqol tasdiqlaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiya oqimining izchil o'sishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlari korporativ qimmatli qog'ozlarining bozori qiymatini baholashda zamonaviy usullardan foydalanish taqozo etmoqda. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozori qiymatini baholashda tizimli va tizimsiz risklarni aniqlash, aksiyalar bozor qiymatini, obligatsiyalar bozor qiymatini aniqlashda dividend diskont usulidan, erkin pul oqimlari usulidan, kapital aktivlarni baholash usulidan, absolyut va nisbiy baholash usullaridan foydalangan holda korporativ qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini baholash hamda aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ qimmatli qog'ozlar bozor qiymatini baholashga ta'sir etuvchi omillarni makro va mikro darajadagi ta'sirini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda davlat ulushi yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarini erkin savdo chiqarish orqali kapital bozorini rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda mamlakatda aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish va erkin kapital bozorida savdosini ta'minlash maqsadida institutsional asoslar yaratildi. Shu sababli, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida kelgusi besh yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga yetkazish"² vazifasi alohida belgilab berilgan. Bu esa, o'z navbatida, aksiyadorlik jamiyatlari korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholash bo'yicha usullardan foydalanish ikmoniyati beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-sonli "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil

¹ https://www.ceicdata.com/en/indicator/market-capitalization--nominal-gdp?utm_source

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. PF-60-son, 2022-yil 28-yanvar.

25-avgustdagi PF-186-son “Strategik davlat aktivlarini xususiylashtirishni jadallashtirish va davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 14-dekabrda PF-256-sonli “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va ularning faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 13-apreldagi PQ-5052-son “Kapital bozorini yanada rivojlantirish va investitsiya muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 25-avgustdagi PQ-3666-son “Davlat aktivlarini samarali boshqarish va ularni xususiylashtirishning yangi bosqichi bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 24-martdagi PQ-102-son “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda 2024-yil 5-yanvardagi PQ-2-son “Kapital bozorini liberallashtirish va IPO jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog‘ozlarining bozor qiymatini baholashning ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy muammolari G.Markovis, J.Tobin, U.Sharp, J.Linter, YA.Mosin, J.V.Duglas, M.E.Blyum, F.Blek, M.Jensen, M.Skoulz, J.Makbet, S.Basu, R.Benz, D.Ctantman, B.Rozenberg, R.Merton, S.Ross, J.Kempbell, E.Fama, K.French, T.Assefa, O.Eskida va A.Mollik kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan³.

³ Harry Markowitz (1952). “Portfolio Selection” The Journal of Finance, Vol. 7, No. 1. pp. 77-91; Tobin.J. (1958). Liquidity Preference as Behaviour Towards Risk. The Review of Economic Studies, Vol.25, No.2, pp.65-86; Sharpe, W. F. (1964). Capital asset prices: A theory of market equilibrium under conditions of risk. Journal of Finance, Vol.19, No.3, pp. 425–442; Lintner, J. (1965). The Valuation of risk assets and the selection of risky investments in stock portfolios and capital budgets. The Review of Economics and Statistics, Vol.47, No.1, pp.13-37; Mossin. J (1966). Equilibrium in a Capital Asset Market, Vol.34, No 4, pp.768-783; Douglas, G.W. (1969), “Risk in the Equity Markets: An Empirical Appraisal of Market Efficiency”, Yale Economic Essays, Vol.9, No.1, pp 3-45; Blume, M.E., (1970). Portfolio theory: A step toward its practical application. Journal of Business, Vol. 43, No.1, pp. 152-173; Black, F., Jensen, M., and Scholes, M. (1972) The Capital Asset Pricing Model: Some empirical tests. Studies in the Theory of Capital Markets. Ed. New York: Praeger Publishers; Fama, E.F. and MacBeth, J.D. (1973) ‘Risk, return and equilibrium: empirical tests’, The Journal of Political Economy, Vol. 81, No.3, pp. 607–636; Basu, S. (1977). Investment Performance of Common Stocks in Relation to their Price–Earnings Ratios: A Test of the Efficient Market Hypothesis, Journal of Finance, Vol.32, No.1, pp. 663–682; Banz, R. W. (1981). The Relationship between Return and Market Value of . Common Stock, Journal of Financial Economics, Vol.9, No.1, pp. 3–18; Stattman, D. (1980) Book Values and Stock Returns, The Chicago MBA: A Journal of Selected papers, Vol. 4, No.1, pp.25–45; Rosenberg, B., Reid, K. and Lanstein, R. (1985) Persuasive evidence of market inefficiency, Journal of Portfolio Management, Vol. 11, No. 3, pp.9–17; Robert C. Merton (1973). An Intertemporal Capital Asset Pricing Model. Econometrica, Vol. 41, No. 5, pp. 867-887; Ross, Stephen A., (1976). “The arbitrage theory of capital asset pricing”, Journal of Economic Theory Vol.13, No.3, pp. 341-360; Campbell, John Y. 1993. Intertemporal asset pricing without consumption data. American Economic Review 83(3): pp. 487-512; Fama, E., & French, K. (1993). “Common risk factors in the returns on stocks and bonds. Journal of Financial Economics”, Vol.33, No.1, 3-56 ;Assefa. T.A, Esqueda.A.O, Mollick.A.V (2017). Stock returns and interest rates around the World: A panel data approach. Journal of Economics and Business, Vol.89, No.1, pp.20-35

Mazkur olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholash bo'yicha mavjud muammolar yoritilgan. Xususan, G.Markovis zamonaviy portfel nazariyasida ilk bor korporativ qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati bo'yicha tadqiqot olib borgan. Shuningdek, U.Sharp esa, aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalarining bozor qiymatini baholashda bozor indeksini inobatga olgan holda baholash mexanizmini takomillashtirgan. Keyinchalik, aksiyadorlik jamiyatlari korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholash nazariyasi yuzasidan qator iqtisodchi olimlar o'rtasida turli munozarali holatlar kuzatilgan bo'lib, ularni hal etishda E.Fama va K.French tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'zlari ilgari surgan nazariyada aksiyadorlik jamiyatlari korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholashga bozor indeksidan tashqari boshqa bir qator omillar ham ta'sir qilishini tadqiqotlarida isbotlab berganlar.

Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholashning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar Sh.Sh.Shoxa'zamiy, L.I.Butikov, M.B.Xamidulin, N.G'.Karimov, X.A.Qurbonov, U.A.Burxonovlar, tomonidan ham amalga oshirilgan⁴.

Chunonchi, Sh.Sh.Shoxa'zamiy aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini aniqlashda aktivlarni baholash modellari nazariyasidan foydalanish maqsadga muvofiq, deb ta'kidlasa, N.G'.Karimov esa o'z tadqiqotida aktivlarni baholash nazariyasini tadqiq qilib, bugungi kunda amaliyotda G.Markovis nazariyasiga nisbatan U.Sharp nazariyasining samaradorliroq ekanligini e'tirof etadi.

X.A.Qurbonovning tadqiqotida moliyaviy aktivlarni baholash modelining kompaniyalar kapitali qiymatini baholash va uning doirasida amalga oshirilgan investitsiya loyihalari uchun talab qilinadigan daromad darajasini aniqlashda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan.

Yuqorida qayd etib o'tilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholash masalalari nazariy jihatdan yoritib berilgan bo'lsa-da, biroq mamlakatimiz korporativ qimmatli qog'ozlarni turli xildagi ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda baholash bo'yicha yetarlicha o'rganilmaganligi mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2020-2025-

⁴ Шохазамий Ш.Ш. "Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане". Автореферат Т; 2011г, 1-42 с.; Шохазамий Ш.Ш. "Молия бозори ва қимматли қоғозлар" дарслик Т., ТФИ. 2012, бет-440.; Бутиков Л.И. "Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане" Автореферат Т.,-2008, 1-41 с.; Бутиков Л.И. Рынок ценных бумаг. Учебник. – Т.: Консаудитинформ, 2001-472 с.; Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. – Т.: Молия, 2008, – 204 с.; Каримов. Н.Ф "Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестицияларни молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш муаммолари" Автореферат, Т,- 2007, 1-40-бет.; Каримов Н.Ф. ва Хожиматов Р.Х. Инвестицияни ташкил этиш ва молиялаштириш: Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2011, 771-787-бет.; Курбонов Х.А. "Корпоративные финансы" Тошкент "Иқтисод-Молия" 2007, 184-бет.; Бурхонов У.А. "Investment valuation in emerging markets: opportunities & specific factors" "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илимий электрон журналы. № 7, 2013 1-9-б.

yillarga mo'ljallangan "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiyadorlik jamiyatlari korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini baholashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;

O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini baholashni amalda tadqiq etish;

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining bozor qiymatini baholash amaliyotini takomillashtirish yo'llarini tadqiq etish;

aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar va ularni ekonometrik modellash;

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari obligatsiyalari qiymatini baholash usulini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholash jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholash jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot vazifasini hal etishda ilmiy abstraksiyalash, empirik, iqtisodiy-matematik modellash, statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlanma kuzatuv, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining fond bozoridagi target qiymatini aniqlashda chegirmaviy pul oqimlari usulidan foydalanish orqali diskont stavkani belgilash chegarasi ($20\% \leq DS \leq 30\%$) asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlariga jalb qilingan qarz qiymatini aniqlashda jalb qilingan kreditlar va emissiya qilingan korporativ obligatsiyalarni inobatga olgan holda qarz koeffitsiyentining maqbul qiymati ($D_r \leq 0,5$) taklif qilingan;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini "bitta aksiya – bitta lot" tamoyili asosida bozor qiymatini aniqlash orqali ommaviy savdolarga chiqarish taklifi asoslangan;

O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari bozor qiymati o'sishining panel ma'lumotlarga ko'ra regression ekonometrik modellar asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion salohiyatini va moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatini hamda qo'shilgan kapitalning o'sish potensialini aniqlash imkonini berildi;

aksiyadorlik jamiyatlarining aktivlari ortishiga jalb qilingan qarzning ta'siri qanchalik ekanligini va jamiyatlarning faoliyati bilan bog'liq risklarning qanchalik

ekanligini hamda qarz instrumentlari orqali jamiyatlarning faoliyatini moliyalashtirishning yuqori va past chegarasini aniqlash imkoni berildi;

aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini ommaviy savdoga chiqarilayotganida bozor qiymatni aniqlash va jamiyatlarga investorlarni jalb qilish hamda aksiyalar paketini bozorga joylashtirishni tezlashtirish imkoni berildi;

aksiyadorlik jamiyatining kapital rentabellik, aktivlar rentabelligi, qarz kapitali hamda jamiyat sof foydasining ta'sir darajasi va o'sish dinamikasini baholash imkonin yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yetakchi iqtisodchi olimlarning fond bozorlari aktivlarini baholash bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, aksiyadorlik jamiyatlari korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholash ekspert natijalari hamda milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalariga asoslanganligi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining va "Toshkent" Respublika fond birjasining statistik ma'lumotlariga asoslanib jarayonni tahlil etish orqali xulosalar qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda moliya bozorini yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan rivojlantirish strategiyasida aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholash mexanizmini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati moliya bozorini rivojlantirish kontsepsiyasini ishlab chiqish hamda moliya bozorini rivojlantirishda foydalanish, shuningdek, fond bozoriga mahalliy hamda xorijiy investorlarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish maqsadida qabul qilinadigan qonun va qonun osti hujjatlari, mamlakat Prezidentining farmonlari, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif hamda tavsiyalar asosida:

aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining fond bozoridagi target qiymatini aniqlashda chegirmaviy pul oqimlari usulidan foydalanish orqali diskont stavkani belgilash chegarasi ($20\% \leq DS \leq 30\%$)ni asoslash taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-sonli "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining bajarilishida qo'llanilgan ("Sharg'un ko'mir" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 9-apreldagi №01-700-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy qilinishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion salohiyatini va moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatini hamda qo'shilgan kapitalni o'sish potensialini aniqlash imkonini bergan;

aksiyadorlik jamiyatlariga jalb qilingan qarz qiymatini aniqlashda jalb qilingan kreditlar va emissiya qilingan korporativ obligatsiyalarini inobatga olgan holda qarz koeffitsiyentining maqbul qiymati ($Dr \leq 0,5$) taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-sonli "Iqtisodiyotda

davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning bajarilishida qo‘llanilgan (“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 9-apreldagi №01-700-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy qilinishi aksiyadorlik jamiyatlarining aktivlari ortishiga jalb qilingan qarzni ta’siri qanchalik ekanligini va jamiyatlarining faoliyati bilan bog‘liq risklarni qanchalik ekanligini hamda qarz instrumentlari orqali jamiyatlarining faoliyatini moliyalashtirish yuqori va past chegarasini aniqlash imkonini bergan;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini “bitta aksiya – bitta lot” tamoyili asosida bozor qiymatini aniqlash orqali ommaviy savdolarga chiqarish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-sonli “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning bajarilishida qo‘llanilgan (“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 9-apreldagi №01-700-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari ommaviy savdoga chiqarilayotganida bozor qiymatini aniqlash va jamiyatlarga investorlarni jalb qilish hamda aksiyalar paketini bozorga joylashtirishni tezlashtirish imkonini bergan;

O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari bozor qiymati o‘shining panel ma’lumotlarga ko‘ra regression ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-sonli “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning bajarilishida qo‘llanilgan (“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 9-apreldagi №01-700-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy qilinishi natijasida aksiyadorlik jamiyatning kapital rentabellik, aktivlar rentabellik, qarz kapitali hamda jamiyatning sof foydasini ta’sir darajasi va o‘shish dinamikasiga baho berish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ishlar, shundan 3 ta mahalliy jurnallarda, 3 ta xalqaro jurnallarda maqola va tezislari, 4 ta ma’ruza tezislari chop qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot

natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholashning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlari korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholash bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar evolyutsiyasi, aksiyadorlik jamiyatlari korporativ qimmatli qog'ozlarining bozor qiymatini baholash modellari ilmiy-nazariy yondashuvlar va qiyosiy tahlili, O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini bozor qiymatini baholashning tashkiliy-huquqiy asoslari ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan ochib berilgan.

O'tgan asrning 30-yillarida xorijlik iqtisodchi olim Bendjamin Gremning **“Qimmatli qog'ozlar tahlili”** kitobida aktivlarni baholash usullariga to'xtalib o'tilgan. Uning fikricha, kompaniyaning investitsion qiymatini aniqlashga mazkur kompaniyaning korporativ qimmatli qog'ozlarini qiymati baholanishi qiymat ekvivalenti nuqtai nazaridan juda yaqin bo'ladi deb ta'kidlaydi. Keyingi yillarda moliya bozorlardagi o'zgarishlar korporativ qimmatli qog'ozlarni baholashda kapital bozor qiymatidan foydalanishni taqozo etdi. Shuni inobatga olgan holda Bendjamin Grem kompaniyasi aksiyalarining bozor qiymatini mazkur kompaniya moddiy aktivlarining bozor qiymati orqali baholashni ko'rsatdi.

Yana bir xorijlik iqtisodchi olim Djon Berr Uilyams esa, kompaniya korporativ qimmatli qog'ozlarini baholashda chegirmaviy pul oqimlari usulidan foydalanishga o'zining **“investitsion qiymat nazariyasi”** kitobida to'xtalib, korporativ qimmatli qog'ozlarni baholashda chegirmaviy pul oqimlaridan foydalanish samaradorligini isbotlab berdi. Muallifning tadqiqotiga ko'ra, chegirmaviy pul oqimlari nazariyasida uchta model muhim o'rin tutadi. Jumladan, kompaniyaning korporativ qimmatli qog'ozlarini baholashda chegirmaviy dividend modellari (Dividend discount models), erkin chegirmaviy pul oqimlari modellari (Free cash flow discount models) va qoldiq daromadlar (Residual income models) modellaridan foydalanish nazarda tutiladi. Mazkur modellarning hisoblanishi turlicha bo'lishiga qaramasdan, nazariy jihatdan kompaniya kapitalidan kutilayotgan chegirmaviy pul oqimlarining qiymatini aniqlash bir xil bo'ladi. Keyinchalik Miller va Modilyan ilmiy izlanishlarida esa, chegirmaviy dividend modeli nazariyasi takomillashtirildi⁵ Mualliflar fikricha, investorlar kompaniyalar qimmatli qog'ozlarini sotib olishda, ikki turdagi pul oqimlarini inobatga oladilar. Birinchisi, aksiyalarni egalik qilgan davrdagi kompaniya tomonidan to'lanadigan dividend miqdori; ikkinchisi kompaniya dividend e'lon qilingunga qadar investorlar aksiyalarini ushlab turgan davrdagi ushbu aksiyalarning bozor qiymati inobatga olinadi. Mualliflar xulosasiga ko'ra, kompaniya qimmatli qog'ozlarining bozor qiymati mazkur qimmatli qog'ozlar egalarining ushlab turgan vaqt mobaynida kutilayotgan dividend bilan aniqlanadi.

Chegirmaviy dividend modelining rivojlanishiga xorijlik iqtisodchi olim Gordon ham o'ziga xos tarzda o'z hissasini qo'shdi⁶. Xorijlik iqtisodchi olim

⁵ Miller, M.H. and F. Modigliani (1961). Dividend policy, growth, and the valuation of shares. Journal of Business. - No. 4. - pp. 411-433.

⁶ Myron J. Gordon (1962). The investment financing and valuation of the corporation. R.D. Irwin edition. -pp-270.

Stiven Penmanning ilmiy izlanishlari chegirmaviy dividend modeliga bag'ishlangan bo'lib, aksiyaning kelajakdagi bozor qiymati dividend asosida aniqlanmaydi deb hisoblagan⁷. Uning ta'kidlashicha, bugungi kunda mazkur modelning amaliyotda qo'llanishida qiyinchiliklar mavjud, chunki qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi yirik miqdorda va ularning bozordagi bahosining o'zgaruvchanligi (volatilligi) yuqoriligi bo'lganligi, ushbu modeldan foydalanish imkoniyatini murakkablashtiradi.

Xorijlik iqtisodchi olim Gryullon va Mayklarning tadqiqotiga ko'ra, o'tgan asrning 80-yillarida yirik kompaniyalar o'zlarining aksiyalarini qayta sotib olishni boshladi⁸. Buning natijasida, kompaniyalardagi mablag'lar investorlarning mablag'lariga aylanishi dividend modelini qo'llash imkoniyatini bermadi. Shundan so'ng ko'pchilik tadqiqotchilar erkin chegirmaviy pul oqimlari modelidan foydalana boshladilar. Biroq, moliya bozorlari konyukturasining o'zgarishi sababli, kompaniyaning kapital qiymatini baholashda nisbiy baholash usulidan foydalana boshlandi. O'z navbatida, kapital qiymatini baholashda multiplikator koeffitsiyentlaridan foydalangan holda aniqlandi.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan J.Stou rahbarligidagi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida kompaniyaning kapital qiymatini baholashda uchta nisbiy baholash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq, deb ta'kidladi⁹. Jumladan:

1. Nisbiy daromadlarni baholash usuli: P/E (Price–earnings ratio) va PEG (price/earnings to growth ratio) koeffitsiyentlari.

2. Nisbiy pul oqimlarini baholash usuli: P/EBIT, P/EBITDA, P/CFO, EV/EBITDA koeffitsiyentlari.

3. Nisbiy aktivlarni baholash usuli: P/B or B/M koeffitsiyentlari.

Xorijlik iqtisodchi olim R.Barker ilmiy izlanishlariga ko'ra, professional investorlar va moliyaviy menejerlar P/E multiplikator koeffitsiyentidan amaliyotda juda ko'p foydalanishganligi ta'kidlandi¹⁰. Bundan tashqari, taniqli xorijlik iqtisodchi olimlardan Demirakos, Strong va Uokeralar tadqiqotlarida esa, kompaniyalarning 89 foizi nisbiy daromadlarni baholash usulidan foydalangan holda kapital qiymatini baholashni amalga oshiradi, degan xulosaga kelishgan¹¹.

Fikrimizcha, qimmatli qog'ozlar bozorida doimiy muomalada bo'lmagan korxonalarning aksiyalarini sotib olishda investorlar ushbu korxonalarning aksiyalaridan kutilayotgan dividend miqdoriga e'tiborini qaratadi. Biroq, qimmatli qog'ozlar doimiy muomalada bo'lgan korxonalarning aksiyalarini sotib olishda investorlar va moliyaviy menejerlar tomonidan aniqlangan korxonaning multiplikator koeffitsiyentlarini inobatga olgan holda sotib oladi. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonalarning kapital qiymati nisbiy daromadlarni baholash usuliga bevosita bog'liq.

⁷ Stephen H. Penman (1992). Return to fundamentals. Journal of Accounting research, 45 (2). – pp.427-467.

⁸ Gryullon, G., and R. Michaely (2002). Dividends, share repurchases, and the substitution hypothesis. Journal of Finance, 57. – pp.1649-1684

⁹ Stowe, John, D., Thomas R. Robinson, Jerald E. Pinto and Dennis W. McLeavey (2002). Analysis of equity investments: Valuation. -AIMR.

¹⁰ Barker, R. (1999). The role of dividends in valuation models used by analysts and fund managers. The European Accounting Review, 8 (2). –pp. 195-218.

¹¹ Demirakos, Efthimios G., Norman Strong, and Martin Walker (2002). The valuation methodologies of financial analysts. Working paper, University of Manchester.

Xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarini o'rganishimiz natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini baholashda multiplikator koeffitsiyentlarining me'yoriy darajasi quyidagi 1-jadvalda o'z aksini topgan.

1- jadval

Multiplikator koeffitsiyentlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar¹²

Ko'rsatkichning nomi	Hisoblash usuli	Me'yoriy qiymati
P/E (price-to-earnings ratio) koeffitsiyenti	Aksiyaning bozor qiymatini/ ((sof foydani-imtiyozli aksiyalarga to'langan dividendlar) / oddiy aksiyalarning soniga nisbati	Oqilona darajasi (12-15)
P/B (price-to-book ratio) koeffitsiyenti	Aksiyaning bozor qiymatini (kompaniyaning bozor qiymatini) / aksiyaning balans qiymatiga nisbati	Optimal darajasi (1-5)
P/S (price-to-sales ratio) koeffitsiyenti	Aksiyaning bozor qiymatini (kompaniyaning bozor qiymatini) / sotish hajmiga nisbati	Optimal darajasi (1-2)
EV/S (enterprise value-to-sales) koeffitsiyenti	Kompaniyaning bozor qiymatini) / soliq va foizlardan oldingi foydasi (EBIT) kompaniya kapitali qiymati=kompaniyaning bozordagi kapitallashuvi+kompaniya sof qarzi	Oqilona darajasi 1-3
Moliyaviy leverj koeffitsiyenti D/E (debt-to-equity ratio) koeffitsiyenti	Majburiyatning/jami kapitalga nisbati	Oqilona darajasi (1-2)
Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti (debt ratio)	Jami majburiyatning/jami aktivga nisbati	Oqilona darajasi (0,6-0,7)
Kapitallashuv koeffitsiyenti (Capitalization ratio)	Uzoq muddatli majburiyatlarning / aksiyadorlik kapitalga nisbati	Oqilona darajasi 1

Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan kompaniyaning korporativ qimmatli qog'ozlarini qiymati baholash bo'yicha turli model va uslublar ishlab chiqilgan. Ular moliya bozoridagi risklarni inobatga olgan holda xususiy va qarz kapitali qiymatini aniqlashga xizmat qiladi. Bunda fiskal siyosat, bankrotlik xavfi, iqtisodiy turg'unlik, inflyatsiya va kapital bozorining rivojlanganlik darajasi kabi omillarni hisobga olish lozim.

Dissertatsiyaning **“Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlarini baholashning mavjud holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistondagi aksiyadolik jamiyatlarining aksiyalarini baholashning amaldagi holati tahlili, aksiyadorlik jamiyatlarining obligatsiyalari qiymatini baholash amaliyoti yoritib berilgan, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarining

¹² Jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan

korporativ qimmatli qog'ozlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar va ularni ekonometrik modellash tirish ochib berilgan.

Dissertatsiya ishida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda 2-jadvaldagi ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, 2019–2023-yillar davomida "Sharg'uniko'mir" AJ va "O'zbekko'mir" AJ faoliyatini taqqoslovchi tahlilda, har ikki korxonada ham mahsulot sotishdan sof tushum izchil o'sib borgan bo'lib, "Sharg'uniko'mir" AJda tushum 47,07 mlrd so'mdan 118,34 mlrd so'mgacha oshgan, "O'zbekko'mir" AJda esa bu ko'rsatkich 485,11 mlrd so'mdan 1164,84 mlrd so'mgacha yetgan, xususan so'nggi yillarda korxona ishlab chiqarish hajmi va bozor ulushi bo'yicha aniq ustunlikka ega; bu holatning sababi sifatida "O'zbekko'mir" AJning modernizatsiyalashtirilgan texnologiyalarga ega ekanligi, keng infratuzilmasi va davlat tomonidan strategik ahamiyatli kompaniya sifatida qo'llab-quvvatlanayotgani qayd etiladi, oqibatda esa kompaniyaning bozordagi raqobatbardoshligi va eksport imkoniyatlari oshib bordi. Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, "O'zbekko'mir" AJ moliyaviy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha barqarorlik va ustuvorlikka erishgan, "Sharg'uniko'mir" AJ esa so'nggi yillarda katta o'sish salohiyatiga ega bo'lgan holda, moliyaviy muvozanatni saqlashda hali-hanuz tashqi omillarga sezgir bo'lib qolmoqda.

2-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlari¹³

Ko'rsatkichlar	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y
"Sharg'uniko'mir" AJ					
Mahsulot sotishdan sof tushum (mlrd, so'm)	47,07	62,26	94,05	98,99	118,34
Sof foyda va zarar (mlrd, so'm)	11,60	(2,65)	4,52	3,61	0,15
Aktivlar (mlrd, so'm)	261,19	61,14	929,69	1114,6	1752,08
Majburiyatlar (mlrd, so'm)	237,66	26,22	861,7	1032,14	1653,82
Kapitali (mlrd, so'm)	23,53	34,92	67,99	82,47	98,26
"O'zbekko'mir" AJ					
Mahsulot sotishdan sof tushum (mlrd, so'm)	485,11	664,04	971,47	1036,52	1164,84
Sof foyda va zarar (mlrd, so'm)	(79,75)	(183,81)	20,56	55,47	63,91
Aktivlar (mlrd, so'm)	2401,89	2549,88	2395,18	2377,21	2302,82
Majburiyatlari (mlrd, so'm)	1652,06	1753,31	1583,25	1520,86	1390,23
Kapitali (mlrd, so'm)	749,83	796,57	811,93	856,35	912,59

Jumladan, "Sharg'uniko'mir" va "O'zbekko'mir" AJlar aksiyalarining bozor qiymatini baholashda chegirmaviy pul oqimlari usulidan foydalangan holda baholaymiz. Shu boisdan, Sharg'uniko'mir" va "O'zbekko'mir" AJlarining joriy terminal qiymatini aniqlaymiz.

3-jadval

¹³ Jadval aksiyadorlik jamiyatlarining hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

“Sharg‘unko‘mir” AJning terminal qiymati dinamikasi¹⁴

Ko‘rsatkichlar	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y	Terminal davr qiymati
Mahsulot sotishdan tushgan tushum(mlrd, so‘m)	62,26	94,05	98,99	118,34	55,6
Daromadning o‘rish sur‘ati, %	32,27%	51,06%	5,25%	19,55%	5%
Operatsion marja	2,57%	3,51%	5,15%	6,08%	7%
EBIT (mlrd, so‘m)	1,6	3,3	5,1	7,2	3,9
Soliqqa to‘lov (mlrd, so‘m)	0,32	0,66	1,02	1,44	0,8
NOPLAT(mlrd, so‘m)	1,28	2,64	4,08	5,76	3,1
Sof investitsiya (mlrd, so‘m)	-54,9	-9,2	-5,8	-2,6	-0,5
Aksiyadorlik jamiyatining erkin pul oqimlari (mlrd, so‘m)	56,18	11,84	9,88	8,36	2,6
Diskont omil	0,8	0,7	0,6	0,5	
Joriy qiymatdagi erkin pul oqimi(mlrd, so‘m)	48,85	8,95	6,50	4,78	84,88
Terminal qiymat (mlrd, so‘m)	2,6				
Joriy terminal qiymat (mlrd, so‘m)	1,49				

3-jadvaldagi ma’lumotlardan shuni ko‘rish mumkinki, 2020–2023-yillar va terminal davr ko‘rsatkichlari tahliliga asosan, “Sharg‘unko‘mir” AJning daromatlari va EBIT darajalari izchil o‘shib borgan, investitsiyalar qisqartirilgani, erkin pul oqimlari esa har yili shakllangani natijasida joriy qiymatdagi umumiy pul oqimi 84,88 mlrd so‘m, terminal davrning joriy qiymati esa 1,49 mlrd so‘mni tashkil etib, kompaniyaning DCF modeli bo‘yicha baholangan umumiy qiymati 86,37 mlrd so‘mga yetgani, bu esa uning moliyaviy barqarorligi va yuqori investitsion salohiyatini ko‘rsatadi. Shu bilan, umumiy DCF modeli hisob-kitoblari asosan “Sharg‘unko‘mir” AJning 2020–2023-yillar uchun diskontlangan erkin pul oqimlari va terminal davrning joriy qiymati yig‘indisi 86,37 mlrd so‘mni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich kompaniyaning iqtisodiy barqarorligi, investitsion salohiyati va kelgusidagi qiymatini yuqori baholash imkonini beradi, shuningdek, uning bozorda jozibador investitsiya obyekti sifatida qaralishini mustahkamlaydi.

¹⁴ Jadval aksiyadorlik jamiyatlarining hisobot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

“O‘zbekko‘mir” AJning terminal qiymati dinamikasi¹⁵

Ko‘rsatkichlar	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y	Terminal davr qiymati
Mahsulot sotishdan tushgan tushum(mlrd, so‘m)	485,11	664,04	971,47	1036,52	1164,84
Daromadning o‘rish sur‘ati, %	36,89%	36,88%	46,30%	6,70%	12,38%
Operatsion marja	16,44%	27,68%	2,12%	5,35%	5,49%
EBIT(mlrd, so‘m)	79,75	183,81	20,56	55,47	63,91
Soliqqa to‘lov(mlrd, so‘m)					
NOPLAT (mlrd, so‘m)	63,8	147,05	16,45	44,38	51,13
Sof investitsiya (mlrd, so‘m)	-23,5	-61,9	-17,8	-12,3	-15,3
Aksiyadorlik jamiyatini erkin pul oqimlari (mlrd, so‘m)	87,3	208,95	34,25	56,68	63,91
Diskont omil	0,87	0,76	0,66	0,57	0,57
Joriy qiymatdagi erkin pul oqimi (mlrd, so‘m)	75,95	158,8	22,61	32,31	36,43
Terminal qiymat (mlrd, so‘m)	426,07				
Joriy terminal qiymat (mlrd, so‘m)	242,86				

4-jadval tahliliga ko‘ra, “O‘zbekko‘mir” AJning 2020–2023-yillar uchun umumiy joriy qiymatdagi erkin pul oqimlari 289,67 mlrd so‘m, terminal qiymatning joriy qiymati esa 242,86 mlrd so‘m bo‘lib, kompaniyaning umumiy DCF modeli bo‘yicha baholangan qiymati 532,53 mlrd so‘mni tashkil etmoqda. Kompaniyaning kelgusidagi uzoq muddatli faoliyati va foyda oqimlari terminal qiymat orqali baholanadi. Gordon modeli asosida hisoblangan terminal qiymat 426,07 mlrd so‘m bo‘lib, bu qiymat 2023-yil diskont omili (0.57) orqali joriy qiymatga keltirilganda 242,86 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Bu yuqori investitsion salohiyat, barqaror moliyaviy o‘rish va bozorda strategik ustuvorlikka ega kompaniya ekanligini ko‘rsatadi. Bu natija uning bozorda jozibador va investitsiyaga loyiq subyekt ekanini anglatadi. Shu bilan birga, xarajatlar va foyda marjasini optimallashtirish, raqobatbardoshlikni saqlash kompaniya uchun kelgusi strategiyada muhim bo‘lib qoladi.

Ilmiy ishimizda “Sharg‘unko‘mir” va “O‘zbekko‘mir” AJlarni kapitallari qiymatini baholashda yuqoridagi hisoblangan kapitalni o‘rtacha tortilgan qiymati, joriy terminal qiymati, aksiyadorlik jamiyatlari qiymati ko‘rsatkilarini hisobga olgan holda kelgusida aksiyadorli jamiyatlarini aksiyalarini bozor qiymati chegirmaviy pul oqimlaridan usulidan foydalangan holda baholashni amalga oshirilgan.

¹⁵ Jadval aksiyadorlik jamiyatlarining hisobot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining bozor qiymati prognozi¹⁶

Ko'rsatkichlar	"Sharg'uniko'mir" AJ	"O'zbekko'mir" AJ
Prognoz davridagi qiymat	84,88	289,67
Terminal qiymati	1,49	242,86
Aksiyadorlik jamiyati qiymati	80,07	489,73
Qarz, mlrd, so'm	1123,2	946,9
Pul mablag'lari	6,3	42,8
Kapital qiymat, mlrd, so'm	1196,97	1393,83
Bozor kapitallashuvi	520	1300
Aksiyaning target bahosi (ming so'm)	961	82368
Aksiyaning bozor qiymati (ming so'm)	409	30000
O'sish salohiyati %	135%	175%

5-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025–2026-yillar uchun aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatlari va aksiyalarining bozor qiymatini prognoz qilish tahlilidan ko'rinib turibdiki, "O'zbekko'mir" AJ va "Sharg'uniko'mir" AJning har ikkalasi ham past baholangan aktivlar hisoblanadi, ammo ularning moliyaviy tuzilmasi, qarz yuki va investitsion salohiyati o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Jumladan, prognoz davridagi qiymat va terminal qiymat ko'rsatkichlari bo'yicha "O'zbekko'mir" AJ mos ravishda 289,67 mlrd so'm va 242,86 mlrd so'm qiymat bilan "Sharg'uniko'mir" AJga nisbatan (84,88 mlrd so'm va 1,49 mlrd so'm) ancha yuqori darajada ekani aniqlandi. Bu esa "O'zbekko'mir"ning ishlab chiqarish hajmi va pul oqimlari bo'yicha ustun ekanini ko'rsatadi. Eng muhim ko'rsatkichlardan biri, aksiya narxining haqiqiy qiymati va bozordagi bahosidir. "O'zbekko'mir" AJda bir aksiyaning target bahosi 82 368 ming so'm bo'lgan holda, bozordagi bahosi 30 000 ming so'mni tashkil etmoqda. Xalqaro standartlar bo'yicha bu aksiyaning o'sish salohiyati 175% ekanini ko'rsatadi. "Sharg'uniko'mir" AJda esa target bahosi 961 ming so'm bo'lib, bozorda 409 ming so'mdan sotilmoqda, bu esa 135% o'sish salohiyatini anglatadi. Shu bilan, har ikkala kompaniyaning aksiyalari ham hozirgi bozor bahosidan past baholangan bo'lib, ularda yuqori investitsion imkoniyatlar mavjud. Biroq "O'zbekko'mir" AJ moliyaviy strukturasi va kapital qiymati jihatidan afzallikka ega bo'lib, unda strategik va yuqori likvid aktivlar hissi kattaroq. Boshqacha aytganda, har ikkala jamiyatda ham kapital salohiyati mavjud, biroq "O'zbekko'mir" AJ yuqori target bahosi va barqaror faoliyati tufayli strategik investitsiya obyekti sifatida ajralib turibdi.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi ishtirokini kengaytirish va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida joylashtirilgan korporativ obligatsiyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu obligatsiyalar aksiyadorlik jamiyatlariga uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda likvidlik darajasini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan, aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoriga

¹⁶ Jadval aksiyadorlik jamiyatlarining hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

joylashtirilgan korporativ obligatsiyalari bo'yicha ma'lumotlar quyidagi jadvalda o'z aksini topgan bo'lib, unda obligatsiyalarning chiqarilish hajmi, foiz stavkasi, muddati va investorlar doirasi kabi asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

6-jadval

Listingga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan kapital bozoriga joylashtirilgan korporativ obligatsiyalarning holati¹⁷

Listingga Kirgan	Nominal qiymat	Miqdori (dona)	Emissiya hajmi, mlrd so'm	Kupon stavkasi	Emissiya sanasi	So'ndirilish sanasi	Kupon to'lovi davri
"Asia Alliance Bank" ATB	1 000 000	45 175	45,2	Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi + 4%	15.07.2019	15.07.2026	har chorakda
"Kapitalbank" ATB	1 000 000	50 000	50,0	Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi + 5%	13.05.2020	21.05.2027	har oyda
"Biznes finans mikromoliya tashkiloti" MCHJ	1 000 000	6 565	6,6	27.0%	16.09.2022	30.08.2025	har oyda
"Biznes finans mikromoliya tashkiloti" MCHJ	100 000	200 000	20,0	27.0%	09.10.2023	13.09.2026	har oyda
"Biznes finans mikromoliya tashkiloti" MCHJ	100 000	300 000	30,0	27.0%	05.12.2024	20.11.2027	har oyda
"Imkon Finans mikromoliya tashkiloti" AJ	1 000 000	6 000	6,0	28.0%	10.04.2023	25.03.2026	har oyda
"Imkon Finans mikromoliya tashkiloti" AJ	1 000 000	10 000	10,0	28.0%	24.04.2024	09.04.2027	har oyda
"Hamkor invest lizing" MCHJ	1 000 000	17 500	17,5	18.0%	25.04.2023	06.05.2026	har chorakda
"Hamkorbank" ATB	1 000 000	50 000	50,0	22.0%	30.04.2024	30.04.2025	So'ndirilish sanasida
"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ	1 000 000	140 000	140,0	19.0%	20.12.2023	17.10.2026	har yarim yillikda
"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ	1 000 000	150 000	150,0	19.0%	17.07.2024	08.07.2027	har yarim yillikda
"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ	1 000 000	50 000	50,0	18.0%	16.09.2024	18.09.2029	har chorakda
"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ	1 000 000	250 000	250 000 000 000	19.0%	11.11.2024	17.11.2027	har chorakda

¹⁷ Kapital bozori ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

6-jadval ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda bir qator bank va mikromoliya tashkilotlari kapital bozori orqali korporativ obligatsiyalar chiqarishni faol yo'lga qo'ygan. Eng yirik emissiyalar "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, umumiy hajmi 590 mlrd so'mni tashkil etadi. "Asia Alliance Bank", "Kapitalbank" va "Hamkorbank" kabi banklar ham kapital bozori orqali moliyaviy resurslarni jalb etmoqda. "Biznes Finans" va "Imkon Finans" mikromoliya tashkilotlarining obligatsiyalari yuqori foiz stavkalari (27–28%) bilan ajralib turadi. Umuman, jadvalda keltirilgan ma'lumotlar korporativ obligatsiyalar bozori rivojlanayotganini va moliya tashkilotlari uchun uzoq muddatli resurs manbai sifatida ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **"O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlari qiymatini baholash yo'llarini takomillashtirish"** deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining bozor qiymatini baholash amaliyotini takomillashtirish va O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari obligatsiyalari qiymatini baholash usulini takomillashtirish bayon etilgan.

Qarz qimmatli qog'ozlarning qiymatini aniqlashda obligatsiyalar mavjud bo'lmagan taqdirda, alternativ ravishda cost of debt, debt-to-equity, debt ratio, debt-to-assets, leverage ratio kabi ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. Bank kreditlarining asosiy manba sifatida jalb etilayotganini hisobga olib, shu yo'nalishdagi koeffitsiyentlar asosida tahlil olib borish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda korporativ obligatsiyalar bozorining rivojlanmagani tufayli jamiyatlar qarzni asosan bank kreditlari orqali jalb qilmoqda. Shu sababli, moliya bozorini rivojlantirish va korporativ obligatsiya emissiyasini rag'batlantirish borasida tizimli choralar zarur.


Jamiyatlar kapital tuzilishida qarz ulushining yuqoriligi va xususiy kapitalning past darajada bo'lishi riskni oshiradi. Shuning uchun, kapital tuzilishida xususiy kapital ulushini oshirish va qarz ulushini 40% atrofida saqlash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, defolt risklari va bankrotlik ehtimollarini tahlil qilish ham muhim hisoblanadi.

Qarz kapitali bahosini aniqlashda risklar va moliyaviy instrumentlarni to'liq hisobga olish lozim. Qarzni jalb qilishda korporativ obligatsiyalar kabi vositalardan foydalanishni rag'batlantirish, shuningdek, koeffitsentlar asosida aniq baholash metodikasini joriy etish kerak.

Shuningdek, qarz koeffitsiyenti (Dr), bu kompaniyaning moliyaviy tuzilmasida qarz miqdori jami kapitalga nisbatan 50% yoki kam bo'lishi lozimligini anglatadi. Bu kompaniyaning moliyaviy xavfini pasaytirish, likvidligini saqlash va investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida taklif etilgan chegaradir. Tadqiqotimizda "O'zbekko'mir" AJning moliyaviy tuzilmasida qarz miqdori juda yuqori. Qarzlari aksiyadorlik kapitaliga nisbatan ustunlik qilayotgani likvidlik xavfini oshiradi, kapital jozibadorligini pasaytiradi. "Sharg'unko'mir" AJda qarz darajasi mutlaq hukmronlik qiladi. Bu holat kompaniyani kredit xatarlariga va foiz xarajatlariga yuzma-yuz keltirishi mumkin.

